

**FARG‘ONA DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY
DARAJALAR BERUVCHI PhD.03/07.06.2024.T.106.06 RAQAMLI
ILMIY KENGASH**

FARG‘ONA DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI

XALIMOV ABBOSBEK OYBEK O‘G‘LI

**EKSPLUATATSIYADAGI KO‘P KVARTIRALI UYLARNING ENERGIYA
SAMARADORLIGINI BAHOLASH VA OSHIRISH MASALALARI**

05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar

**Texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Farg‘ona-2025

**Texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiya
avtoreferati mundarijasi**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on technical
sciences**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
техническим наукам**

Xalimov Abbosbek Oybek o‘g‘li

Ekspluatatsiyadagi ko‘p kvartirali uylarning energiya samaradorligini baholash va oshirish masalalari.....3

Khalimov Abbosbek Oybek ugli

Issues of assessing and improving energy efficiency of operating apartment buildings.....21

Халимов Аббосбек Ойбек угли

Вопросы оценки и повышения энергоэффективности эксплуатируемых многоквартирных домов..... 39

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

List of published works

Список опубликованных работ46

**FARG‘ONA DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY
DARAJALAR BERUVCHI PhD.03/07.06.2024.T.106.06 RAQAMLI
ILMIY KENGASH**

FARG‘ONA DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI

XALIMOV ABBOSBEK OYBEK O‘G‘LI

**EKSPLUATATSIYADAGI KO‘P KVARTIRALI UYLARNING ENERGIYA
SAMARADORLIGINI BAHOLASH VA OSHIRISH MASALALARI**

05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar

**Texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Farg‘ona-2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2025.3.PhD/T5810 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Doktorlik dissertatsiyasi Farg‘ona davlat texnika universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)), Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.fstu.uz va “ZiyoNet” Axborot-ta’lim portalida www.ziyounet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Xotamov Asadulla Toshtemirovich
texnika fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Yuvmitov Anvar Sayfullayevich
texnika fanlari doktori, katta ilmiy xodim

Norov Nusiratjon Nuralievich
texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent

Yetakchi tashkilot:

Namangan davlat texnika universiteti

Dissertatsiya himoyasi Farg‘ona davlat texnika universiteti huzuridagi Ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/07.06.2024.T.106.06 raqamli Ilmiy kengashning 2025 yil “31” oktabr soat 14³⁰ dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: Farg‘ona viloyati, Farg‘ona shahar, Farg‘ona ko‘chasi, 86 - uy. Tel.: (99873) 241–12–06; e-mail: info@fstu.uz).

Dissertatsiya bilan Farg‘ona davlat texnika universiteti Axborot - resurs markazida tanishish mumkin (№ 296–raqami bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: Farg‘ona shahar, Farg‘ona ko‘chasi, 86 - uy. Tel.: (99895) 028–42–20; faks: (99895) 028 42 20, e-mail: fstuarm@edu.uz).

Dissertatsiya avtoreferati 2025 yil “17” oktabr kuni tarqatildi.
(2025 yil “15” oktabrdagi № 1/2025-7 raqamli reestr bayonnomasi).

S.F. Ergashev
Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash raisi
texnika fanlari doktori, professor

Sh.A. Umarov
Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash ilmiy kotibi,
texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent

X.A. Akramov
Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash qoshidagi Ilmiy seminar raisi,
texnika fanlari doktori, professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiya annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda energiya resurslariga bo'lgan talabning barqaror o'sayotgani munosabati bilan zamonaviy binolarni loyihalash hamda ekspluatatsiyadagi binolarni kapital ta'mirlash jarayonlarida energiya samaradorligini oshirish va isitish uchun sarflanadigan energiyadan samarali foydalanish masalalariga katta ahamiyat berilmoqda. Hozirgi kunda dunyo bo'yicha 2024-yil energiyaga bo'lgan talab 2,2% ga o'sib, jami 640×10^{18} joul (640 eksadjoul)ni tashkil etmoqda. Elektr energiyasiga bo'lgan talab ayniqsa sezilarli o'sib, 4,3% ga ortib, global yalpi ichki mahsulot o'sishidan (3,2%) yuqori darajaga ko'tarildi. Binolarda elektr energiyasi iste'moli 2024-yilda rekord darajada oshib, global iste'molning 60% ini tashkil qildi, bu esa isitish va sovutish ehtiyojlarining oshishi bilan bog'liq. Bu borada, jumladan binolarning energiya samaradorligini oshirish, energiya iste'molini oqilona boshqarish va tejash bo'yicha amaliy yechimlar ishlab chiqish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Jahon amaliyotida binolarning energiya samaradorligini ta'minlashga qaratilgan keng qamrovli ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Ushbu tadqiqotlarda binolar tashqi to'siq konstruksiyalari orqali yo'qoladigan energiya miqdorini kamaytirish, hamda konstruksiyalarni takomillashtirish ustuvor ahamiyat kasb etmoqda. Rivojlangan davlatlarda, xususan AQSh, Kanada, Germaniya, Finlandiya, Rossiya, Xitoy va Yaponiya kabi mamlakatlarda, energiya tejamkor binolarni loyihalash va mavjud inshootlarni energiya samaradorligini oshirish bo'yicha katta tajriba to'plangan. Binolarning energiya samaradorligini yanada yaxshilash maqsadida yangi konstruktiv yechimlar ishlab chiqilib, amaliyotga tatbiq etilmoqda, jumladan binolar energiya samaradorligini baholash va tashqi to'siq konstruksiyalari orqali yo'qotiladigan issiqlik miqdorlarini kamaytirish usullarini takomillashtirish dolzarb vazifalardan hisoblanmoqda.

Respublikamizda so'nggi yillarda sohada binolar energiya samaradorligini oshirishga yordam beradigan yangi texnologiyalarni ishlab chiqish va ularni amalda qo'llash bo'yicha keng ko'lamlı islohotlar amalga oshirilmoqda. "Yashil texnologiyalar bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib borish",¹ "Yangi quriladigan bino-inshootlar va uy-joylar energiya samaradorligidan kelib chiqib, "Yashil bino" sertifikatı joriy etilishini ta'minlash"² vazifalari belgilangan. Bu borada, jumladan ko'p kvartirali uylarning energiya samaradorlik darajasini aniqlash va baholash uslublarini yanada takomillashtirish, shuningdek, ilg'or issiqlik saqlovchi qurilish materiallari, innovatsion konstruktiv yechimlarni amaliyotga keng joriy etish orqali binolarning issiqlik himoya ko'rsatkichlarini oshirish masalasi muhim ilmiy-amaliy vazifa sifatida dolzarb ahamiyatga ega.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yilni "Atrof muhitni asrash va "yashil" iqtisodiyot yili" deb e'lon qilishi, shuningdek, 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022-2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025 yil 11 martdagi PQ-100-sonli "Uy-joy hamda bino-inshootlarni issiqlik energiyasi bilan ta'minlash sohasini tubdan isloh qilish hamda binolarning energiya samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori.

² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025 yil 30 yanvardagi PF-16-sonli "O'zbekiston — 2030" strategiyasini "Atrof-muhitni asrash va "yashil iqtisodiyot" yilida amalga oshirishga oid davlat dasturi to'g'risida"gi farmoni.

to'g'risida", 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-son "O'zbekiston – 2030" strategiyasi to'g'risida"gi farmonlari, 2023-yil 16-fevraldagi PQ-57-son "2023-yilda qayta tiklanuvchi energiya manbalarini va energiya tejovchi texnologiyalarni joriy etishni jadallashtirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2025-yil 11-martdagi PQ-100-son "Uy-joy hamda bino-inshootlarni issiqlik energiyasi bilan ta'minlash sohasini tubdan isloh qilish hamda binolarning energiya samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorlarida belgilangan vazifalarni amalga oshirishda va ushbu sohadagi me'yoriy-huquqiy hujjatlarda ko'rsatilgan maqsadlarga erishishda mazkur dissertatsiya tadqiqoti ma'lum darajada hissa qo'shadi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Dissertatsiya ishi O'zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalari rivojlanishining II. «Energetika, energiya va resurs tejamkorligi» ustuvor yo'nalishiga mos ravishda bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Energiya samaradorlik masalasi butun dunyo bo'yicha dolzarb bo'lganligi sababli bu soha bo'yicha doimiy izlanishlar olib borilmoqda. Bu mavzu bo'yicha Xorijiy va MDH mamlakat olimlari: R.M.Aloyan, S.V.Fedosov, L.A.Oparina, N.V.Pilipenko, Y.G.Kiseleva, M.S.Myagkovva, A.Lari, V.M.Fokin, A.Galata, J. M.Andujar, S.G.Melgar, A.E.Kiryudcheva, D.O.Sovetnikov, P.V.Monastrev, A.M.Makarov, S.V.Kornienko, C.Costantino, A.C.Benedetti, R.Gulli, V.Milich, P.Rohdin, M.Upis, I.Amolina, I.Geypele, N.Zeltins, A.Papoyan, Ch.Jan, S.Xan, G.Li, Jang H. va boshqa bir qancha olimlar tadqiqotlar olib borishgan.

Mamlakatimizda fuqaro binolarining energiya samaradorligi sohasida M.M.Zoxidov, G'.Sh.Shukurov, S.M.Maxmudov, E.S.Tulakov, binolarning energiya samaradorligini oshirish bo'yicha, R.Y.Marakaev, N.N.Norov, O'zbekiston sharoitida energiya samarali binolarni loyihalash bo'yicha, J.V.Eshmurodov, Q.Edmurodov, S.A.Xodjaev, R.R.Qadirov, E.V.Shipacheva, M.Nabiyev quruq issiq iqlim sharoitida energiyasamarador binolarni loyihalash bo'yicha, M.A.Koroli, M.B.Xudiyarov bino energetik auditi yo'nalishlari bo'yicha samarali ilmiy izlanishlar olib borishgan. Turar joy maskanlarida binolarning energiya samaradorligiga to'g'ridan-to'g'ri ta'sir ko'rsatuvchi, ularni ufqqa nisbatan optimal joylashtirish, bunda binolarning o'zaro joylashuviga ta'sir etuvchi tabiiy, texnogen va antropogen omillar I.S.Shukurov, A.T.Xotamov, X.F.Allaberganov, B.E.Dusatovlar tomonidan o'rganilmoqda.

Tahliliy ko'rsatkichlardan kelib chiqib, ko'p kvartirali uylarning energiya samaradorligini baholash muammosi hali to'liq o'rganilmagan. Ko'p kvartirali uylarning energiya samaradorligini aniqlash usullari respublikamizning hududiy va iqlim sharoitlarini inobatga olgan holda amalga oshirish metodlarini tadqiq etish zaruriyatini keltirib chiqaradi.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Farg'ona davlat texnika universitetining ilmiy tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq "Barqarorlik va sanoat innovatsiyalari dasturi" (2024-2025) mavzusidagi loyiha doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi mavjud ko'p kvartirali uylarning energiya samaradorligini baholash, tashqi to'siq konstruksiyalardan yo'qotilayotgan issiqlik miqdorini kamaytirish usullarini aniqlashdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

binolarda energiya samaradorligini baholash va oshirishga doir ilmiy adabiyotlar va amaliy tadqiqotlarni baholash;

Farg'ona shahar, Qirguli mavzesida joylashgan mavjud ko'p kvartirali uylarni monitoring qilish hamda energiya yo'qotishlari bilan bog'liq asosiy muammolarni aniqlash;

ko'p kvartirali uylarda energiya samaradorligini baholashning nazariy-metodik asoslarini aniqlash;

ko'p kvartirali uylarni energiya samaradorligini baholash usullarini takomillashtirish bo'yicha hisob-kitoblarni avtomatlashtiruvchi elektron platforma ishlab chiqish;

ko'p kvartirali uylarning tashqi to'siq konstruksiyalaridan issiqlik yo'qotilishini kamaytiruvchi konstruktiv va texnik yechimlarini ishlab chiqish;

taklif etilgan yechimlarning iqtisodiy samaradorligini baholash orqali ularning amaliy qiymatini aniqlash.

Tadqiqotning obyekti sifatida Farg'ona shahar Qirguli mavzesidagi ekspluatatsiyadagi ko'p kvartirali uylar olingan.

Tadqiqotning predmetini ekspluatatsiyadagi ko'p kvartirali uylarning energiya samaradorligi, xususan ularning issiqlik himoyasi darajasini baholash va oshirishga qaratilgan uslubiy va amaliy jihatlar tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotda statistik tahlil, baholash, real obyektlarda o'tkazilgan naturaviy tekshiruvlar va qiyoslash usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

ko'p kvartirali uylarning energiya samaradorligini baholash uslubi bino kapital ta'mirlangandagi konstruksiyalarni issiqlik o'tkazishga bo'lgan qarshiliklaridagi o'zgarishlarni inobatga oluvchi algoritmi ishlab chiqish hisobiga takomillashtirilgan;

ko'p kvartirali uylarning energiya samaradorligini qisqa vaqtda kompleks baholash hamda uni issiqlik energetik sinfini binoning solishtirma issiqlik sarfi miqdori o'zgarishiga asosan oshirish imkonini beruvchi onlayn hisoblash platformasi ishlab chiqilgan;

ko'p kvartirali uylarning texnik holatini instrumental-texnik tekshirish va energiya samaradorligini baholash ishlarini integratsiyalashgan yondashuvga ko'ra birgalikda amalga oshirish orqali mehnat hamda vaqt resurslarini 20% ga kamayishi aniqlangan;

ko'p kvartirali uylarning tashqi devorlari izolyatsiyasida fasad panellari konstruksiyalarining soddalashtirilganligi va o'rnatish jarayonining mexanizatsiyalashgani sababli ventilyatsiyali fasadga nisbatan montajda vaqt hamda ishchi kuchi xarajatlarining kamayishi hisobiga 1,1 barobar iqtisodiy samaradorlikka erishilishi isbotlangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

ko'p kvartirali uylarning energiya samaradorligini baholash jarayonida kapital ta'mirdan keyingi konstruktiv, texnologik o'zgarishlar inobatga olinib, baholashning aniqligi va ishonchliligi ta'minlangan hamda uslubiy mexanizm takomillashtirilgan;

binolarning energiya samaradorligini qisqa muddatda hisoblash va issiqlik energetik sinfini aniqlash imkonini beruvchi energiyasamaradorbino.uz

avtomatlashtirilgan onlayn hisoblash platformasi ishlab chiqilgan;

ko'p kvartirali uylarning texnik holatini instrumental-texnik tekshirish va energiya samaradorligini baholash jarayonlari birgalikda amalga oshirilib, mehnat hamda vaqt resurslaridan oqilona foydalanish imkoniyati yaratilgan;

tashqi devor izolyatsiyasida ventilyatsiyali fasad panellaridan foydalanishning texnologik jarayonlari chuqur o'rganilib, montajning quruq usulda bajarilishi qurilish samaradorligini oshirgan hamda ularning texnologik afzalliklari asoslangan.

Tadqiqot natijalarini ishonchliligi. Tadqiqot jarayonida foydalanilgan nazariy hisoblar amaldagi qurilish me'yorlari va qoidalariga asoslangan. Issiqlik yo'qotishiga ta'sir etuvchi omillar kompleks tahlil qilinib, ularning ilmiy asoslangan tartibda tizimlashtirilishi natijalarning ishonchliligini ta'minladi. Shuningdek, ishlab chiqilgan hisoblash algoritmlari asosida ishlovchi onlayn platforma orqali olingan natijalar mavjud amaliy holatlarga muvofiqligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati ekspluatatsiyadagi ko'p kvartirali uylarning issiqlik himoyasi samaradorligini baholash bo'yicha hududiy sharoitlarga moslashtirilgan onlayn hisoblash algoritmi va platformasining ishlab chiqilishi, shuningdek, konstruktiv yechimlarning issiqlik himoya darajasi bo'yicha ilmiy asoslangan tahlili orqali energiya samaradorlikni baholash nazariyasiga qo'shilgan hissasi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati mavjud uy-joy fondi uchun energiya tejamkorligini oshirishga xizmat qiluvchi texnik va iqtisodiy jihatdan maqbul konstruksiyalarning tavsiya etilishi, energiyasamaradorbino.uz onlayn platformasi orqali binolarning issiqlik yo'qotishlarini baholash imkoniyati yaratilishi, shuningdek, hisob-kitob natijalari asosida ta'mirlash choralari samarasining oldindan baholash imkoniyati bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Ekspluatatsiyadagi ko'p kvartirali uylarning energiya samaradorligini baholash va oshirish masalalari mavzusida olib borilgan ilmiy tadqiqot natijalari asosida:

ko'p kvartirali uylarning energiya samaradorligini baholash uslubi bino kapital ta'mirlangandagi konstruksiyalarni issiqlik o'tkazishga bo'lgan qarshiliklaridagi o'zgarishlarni inobatga oluvchi algoritmni ishlab chiqish hisobiga takomillashtirilganligi hamda ko'p kvartirali uylarning energiya samaradorligini qisqa vaqtda kompleks baholash hamda uni issiqlik energetik sinfini binoning solishtirma issiqlik sarfi miqdori o'zgarishiga asosan oshirish imkonini beruvchi onlayn hisoblash platformasi ishlab chiqilganligi yuzasidan takliflar "Farg'onafuqaroloyiha" MCHJ loyihalash tashkiloti tomonidan So'x tumani Xirmontepa ko'chasida qurilgan 7 qavatli turar-joy binosi loyahasini ishlab chiqishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Qurilish va uy joy kommunal xo'jaligi vazirligining 2025-yil 10-sentabrdagi 34-06/10251-son ma'lumotnomasi). Natijada issiqlik-texnik hisoblash ishlari an'anaviy usullarga nisbatan vaqtning 25% gacha tejalishiga erishilgan;

ko'p kvartirali uylarning texnik holatini instrumental-texnik tekshirish va energiya samaradorligini baholash ishlarini integratsiyalashgan yondashuvga ko'ra birgalikda amalga oshirish orqali mehnat hamda vaqt resurslarini 20% ga kamayishi aniqlanganligi hamda ko'p kvartirali uylarning tashqi devorlari izolyatsiyasida fasad panellari konstruksiyalarining soddalashtirilganligi va o'rnatish jarayonining

mexanizatsiyalashgani sababli ventilyatsiyali fasadga nisbatan montajda vaqt hamda ishchi kuchi xarajatlarining kamayishi hisobiga 1,1 barobar iqtisodiy samaradorlikka erishilishi isbotlanganligiga oid takliflar “Constraction Test Laboratory” MCHJ tomonidan Marg‘ilon shahar B.Marg‘iloniy ko‘chasida qurilgan 5 qavatli turar-joy binosini qurishda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Qurilish va uy joy kommunal xo‘jaligi vazirligining 2025-yil 10-sentabrdagi 34–06/10251-son ma‘lumotnomasi). Natijada taklif etilayotgan usullar qo‘llanilganda 10% iqtisodiy samaradorlikka erishilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Dissertatsiya ishining natijalari 8 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy–amaliy anjumanlarida muhokama qilingan.

Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 19 ta ilmiy ish chop etilgan bo‘lib, shulardan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining falsafa doktori (PhD) dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 6 ta maqolalar, jumladan, 5 tasi respublika va 1 tasi xorijiy jurnallarda nashr qilingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, to‘rtta bob, xulosalar, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 120 sahifani tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning kirish qismida bajarilgan dissertatsiya tadqiqotining dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning Respublika fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlarga mosligi, tadqiqotning maqsadi va vazifalari hamda tadqiqot obyekti va predmeti keltirilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va olingan natijalarning ilmiy-amaliy ahamiyati ifodalangan, tadqiqot ishlari natijalarining ishlab chiqarishga tadbiq etilganligi ta‘kidlangan, tadqiqot ishlari natijalarining aprobatsiyasi haqida ma‘lumotlar va dissertatsiya mavzusi bo‘yicha chop etilgan ilmiy maqolalar, shuningdek, dissertatsiya strukturasi va hajmi to‘g‘risidagi ma‘lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Turar-joy binolarida energiya tejamkorlik va ularning Farg‘ona shahridagi rivojlanish tendensiyalari”** deb nomlangan birinchi bobida ilmiy-texnik adabiyotlar, mahalliy va xorijiy nashrlar tahlil qilinib, Farg‘ona shahridagi ko‘p kvartirali uylar (KKU) ning mavjud texnik holati, energiya samaradorligi, qurilish tarixi va ularning ekspluatatsiyasi bilan bog‘liq muammolar atroflicha tahlil qilindi. Tadqiqotda global energiya tejamkorlik tendensiyalari, O‘zbekiston va xususan Farg‘ona viloyatidagi uy-joy fondining rivojlanish dinamikasi, shuningdek, Qirguli mavzesidagi KKUlarining texnik va energiya samaradorligi xususiyatlari o‘rganildi.

O‘zbekistonda, xususan Farg‘ona viloyatida uy-joy qurilishining tarixiy va zamonaviy rivojlanishi tahlil qilindi. 2023 yilga kelib, respublikada 47 776 ta KKU mavjud bo‘lib, ularning 9% ga yaqini Farg‘ona viloyatida joylashgan. Farg‘ona shahrida 1960–1990 yillarda qurilgan KKUlar ustunlik qiladi, bu davrda temirbeton va g‘isht konstruksiyalari keng qo‘llanilgan. Farg‘ona viloyatida 4149 ta KKU mavjud bo‘lib, ularning 1554 tasi Farg‘ona shahrida, xususan, Qirguli mavzesida 477 tasi joylashgan. Ushbu binolarning 61% temirbeton, 35,2% g‘isht va 3,1% yog‘och materiallardan qurilgan. 4 qavatli binolar (285 ta) eng ko‘p tarqalgan bo‘lib, asosan 1-464a seriyali panelli uylar va 2 qavatli g‘ishtli uylar tashkil etadi.

Farg‘ona shahridagi KKUlarining ekspluatatsiya muammolari va energiya

samaradorligi masalalari ko‘rib chiqildi. Ko‘pchilik binolarning muhandislik tizimlari eskirgan, issiqlik izolyatsiyasi standartlarga javob bermaydi. Aholining 33% gaz plitalari, 26% elektr isitgichlar, 14% konditsionerlar va 13% tabiiy gaz asosidagi suvli isitish tizimlaridan foydalanadi, bu energiya sarfini va yong‘in xavfini oshiradi. Muammolarga ta‘mirga mablag‘ yetishmasligi, yangi texnologiyalarning yetarli joriy etilmasligi va energiya tejash madaniyatining pastligi sabab bo‘lmoqda.


Ushbu bobda Farg‘ona shahridagi KKUlarining texnik holati, energiya samaradorligi va ularning rivojlanish tarixiga oid muhim ma‘lumotlar umumlashtirildi, bu keyingi tadqiqotlar uchun asos bo‘lib xizmat qiladi.

Dissertatsiyaning **“Ko‘p kvartirali uylarga salbiy ta‘sir ko‘rsatuvchi omillar va energiya samaradorlikni baholashning nazariy asoslari”** deb nomlangan ikkinchi bobida, ko‘p kvartirali uylar (KKU) ning energiya samaradorligi tushunchasi, uni baholash metodologiyalari bo‘yicha O‘zbekiston va xorijiy tajribalar, shuningdek, energiya samaradorligiga salbiy ta‘sir ko‘rsatuvchi regional omillar tahlil qilindi. Tadqiqotda binolar energiya samaradorligini oshirishning nazariy va amaliy jihatlari, qurilishdagi zamonaviy yondashuvlar va ularning ekologik barqarorlikka ta‘siri ko‘rib chiqildi.

KKUlarining energiya samaradorligi masalalari atroflicha o‘rganildi. Energiya samarador binolar ikki turga bo‘linadi: energiya tejimli va energiya faol. Tadqiqotda termoizolyatsiya materiallari, isitish va sovitish tizimlari, shamollatish va zamonaviy texnologiyalar integratsiyasining ahamiyati ta‘kidlandi. Bu elementlar energiya sarfini 30–90% ga kamaytirish, ekologik barqarorlikni ta‘minlash va yashash sharoitlarini yaxshilash imkonini beradi. O‘zbekiston Respublikasida binolar energiya samaradorligi 7 ta toifaga bo‘lingan bo‘lib, bular A dan G gacha bo‘lgan darajalarda, A eng yuqori samaradorlikka ega va G eng past darajalar hisoblanadi. (1-jadval)

1-jadval


Bino va inshootlarning energiya samaradorligi toifasini belgilash jadvali

Bino va inshootlarning energiya samaradorligi toifasi	Og‘ish kattaligi, %	Tavsiyalar
A 	-40 dan ko‘proq	Iqtisodiy rag‘batlantirish mumkin bo‘lgan energiya samarador bino va inshootlar
B 	-40 dan -26 gacha	
C 	-25 dan -11 gacha	
D 	-10 dan +4 gacha	Normal iste‘mol
E 	+5 dan +14 gacha	Bino va inshootlarda issiqlik yo‘qotishlarini kamaytirish zarur
F 	+15 dan +25 gacha	
G 	+25 dan ko‘proq	Bino va inshootlarni mukammal ta‘mirlash yoki rekonstruksiya qilish talab etiladi

Xorijiy tajribalar, xususan, Energiya Performans of Buildings Direktivasi (EPBD), BREEAM va LEED tizimlari tahlil qilindi. EPBD (2002, 2010, 2018, 2024 yillarda yangilangan) Yevropada energiya sarfini 2030 yilga 60% ga kamaytirish va 2050 yilga nol uglerodli bino fondini yaratishni maqsad qiladi. BREEAM (1990) va

LEED (1993) tizimlari binoning energiya samaradorligi, ekologik barqarorligi va ichki muhit sifatini baholaydi. BREEAM sertifikatlari “Outstanding” dan “Unclassified” gacha, LEED esa “Platina” dan “Sertifikatlangan” gacha darajalarga ega. Bu tizimlar energiya sarfini 30–50% ga kamaytirish, uglerod chiqindilarini qisqartirish va yashash sharoitlarini yaxshilashga xizmat qiladi.

Farg‘ona viloyatidagi KKUlarining eskirishiga ta’sir qiluvchi omillar va ularning energiya samaradorligiga ta’siri ko‘rib chiqildi va toifalarga ajratildi. Bunga ko‘ra A-tabiiy va texnogen omillar va B-subyektiv omillar. Binolarning 70% dan ortig‘i 1960–1990 yillarda qurilgan bo‘lib, fizik va ma’naviy eskirmoqda. Fizik eskirish omillariga quyidagilar kiradi: yemirilish, namlik, quyosh ta’siri. Ma’naviy eskirish esa eski muhandislik tizimlari (isitish, shamollatish), zamonaviy energiya tejoychi texnologiyalarning yo‘qligi va binolarning funksional jihatdan eskirishi bilan bog‘liq. Bu omillar issiqlik yo‘qotishlarini 35–50% ga oshiradi va energiya auditori, zamonaviy izolyatsiya materiallari va rekonstruksiya orqali energiya sarfini 20–40% ga kamaytirish mumkin.



1-rasm. KKUlarining energiya samaradorligiga ta’sir ko‘rsatuvchi omillar sxemasi.

Ushbu bob KKUlarining energiya samaradorligini baholash va oshirish bo‘yicha nazariy asoslarni umumlashtirdi, bu keyingi amaliy tadqiqotlar uchun muhim asos bo‘lib xizmat qiladi.

Dissertatsiyaning “Ko‘p kvartirali uylarning energiya samaradorligini eksperimental tadqiq etish” deb nomlangan uchinchi bobida eksperimental tadqiqotlarning vazifalari, sinov qurilmalari, vositalari va o‘lchov asboblari, sinov natijalari keltirilgan.

a)



b)



2-rasm. Tadqiqot obyektlari. a) Farg‘ona sh., Farg‘ona ko‘chasidagi 78-uy (yirik panelli);

b) Farg‘ona sh., Neftchilar ko‘chasidagi 26-uy (g‘ishtli).

Ushbu bobda Farg‘ona viloyatidagi ko‘p kvartirali uylar (KKU) ning energiya samaradorligi eksperimental tadqiq etildi. Tadqiqotda obyektlarning umumiy xususiyatlari, naturaviy sinov ishlari, mavjud energiya samaradorligi holati va issiqlik yo‘qotishlarining hisob-kitoblari ko‘rib chiqildi.

Tadqiqot obyekti sifatida Farg‘ona shahridagi ikki KKU – Farg‘ona ko‘chasi, 78-uy (4 qavatli temirbeton panelli, 1973 yilda qurilgan) va Neftchilar ko‘chasi, 26-uy (2 qavatli g‘ishtli) tanlandi.

1-tadqiqot obyekti tashqi to‘siq konstruksiyalarining mustahkamligi instrumental o‘rganildi. O‘rganish natijasida 1-tadqiqot obyektining tashqi devor panellari, poydevor panellarining o‘rtacha beton sinfi B20 ekanligi, ba’zi konstruksiyalarda namlik ta’sirida yemirilish holatlari mavjudligi, aniqlandi.


Binoning zilzilabardoshlilik darajasini baholash maqsadida LIRA-SOFT 10.12 hisoblash dasturi yordamida uning konstruktiv tizimi modellashtirilib, seysmik tahlil amalga oshirildi. Olib borilgan tahlillar natijasida bino konstruksiyasi seysmik ta’sirlarga nisbatan yetarlicha barqaror ekani aniqlandi.



3-rasm. Farg‘ona shahri, Farg‘ona ko‘chasidagi 78-uy konstruksiyalarini instrumental tekshirish. a) devor paneli beton sinfini aniqlash; b) Pulsar-2.2 qurilmasi natijasi.


Neftchilar ko‘chasi 26-uyning poydevor, devor, yopmalar va tom konstruksiyalari texnik holati baholandi. G‘isht markasi laboratoriya sharoitida aniqlandi.

Sinov natijalariga ko‘ra, g‘ishtlarning o‘rtacha siqilishdagi mustahkamlik qiymati 5.00 MPa ni tashkil etdi. Bu natija O‘zDSt 3255:2017 standartiga muvofiq M50 markali g‘isht hisoblanib, past markali g‘isht hisoblanadi. Ushbu ma’lumot bino konstruktiv tizimlarini “LIRA-SAPR” dasturida hisoblashda asos sifatida qabul qilindi.




4-rasm. Yirik panelli binoning uch o‘lchamli modeli (a) va binoning zilzila ta’sirida konstruksiyalardagi ekvivalent kuchlanishlari (b).

ShNQ 1.04.03-23 ga asosan binoning konstruktiv elementlari xizmat muddatini o‘tagan. Hozirgi holatgacha kapital ta’mirlanmagan. Binoning haqiqiy ekspluatatsiya muddati 68 yilligini va bu turdagi binolar uchun me’yoriy ekspluatatsiya muddati 80-90 yilligini inobatga olib ushbu binoni kapital ta’mirlash xarajatlari o‘zini oqlash potentsiali past deb baholandi.




5-rasm. G'ishtli binoning uch o'lchamli modeli analitik holati (a) va binoning zilzila ta'sirida konstruksiyalardagi ekvivalent kuchlanishlari (b).

Bino konstruktiv va ma'naviy eskirgan deb topildi. Bunday binolarni kapital ta'mirlash emas, balki renovatsiya ishlarini amalga oshirish ko'proq samara beradi. Shu sababdan mavjud holatda binoga energiya samaradorlikka qaratilgan kapital ta'mirlash ishlarini olib borish maqsadga muvofiq emasligi aniqlandi.



6-rasm. 1-tadqiqot obyektining teplovizion tasvirlari (a,d,f,h) va fototasvirlar (b,e,g,i).

Farg'ona ko'chasi, 78-uy va Neftchilar ko'chasi, 26-uyning issiqlik yo'qotilishi UNI-T UTi260B teplovizori yordamida tahlil qilindi. Panelli binoda issiqlik yo'qotishlari panel bo'g'inlari, temirbeton o'zak qismlarida deraza perimetrlari va yopmalar bilan tutashuvlarda yuqori. G'ishtli binoda deraza birikmalari va orayopma plitalarda issiqlik chiqishi ko'p. Tasvirlarda past haroratli (ko'k) hududlar issiqlik yo'qotilishi kamligini va yuqori haroratli (qizil) zonalar issiqlik oqimini yuqori ekanligini ko'rsatdi.



7-rasm. 2-tadqiqot obyektining teplovizion tasvirlari (a,d) va fototasvirlar (b,e)

Isitish mavsumida binodan asosan tashqi devor konstruksiyalaridan va ventilyatsiya orqali issiqlik yo‘qotiladi va hisobiy issiqlik ajralishlar hisoblanadi, ya’ni:

$$Q_{\text{umumiy}} = \sum Q_{\text{konstr.}} + Q_{\text{vent}} - Q_{\text{is.ajr.}} \quad (1)$$

bu yerda:

$Q_{\text{konstr.}}$ – binoning tashqi to‘siq konstruksiyalaridan yo‘qotilayotgan issiqlik miqdori, Vt;

Q_{vent} – ventilyatsiyadan yo‘qotilayotgan issiqlik miqdori, Vt;


$Q_{\text{is.ajr.}}$ – hisobiy issiqlik ajralishlari, Vt.

Farg‘ona ko‘chasi, 78-uyning energiya samaradorligi hisoblandi. Tashqi devor ($R_0=0,89 \text{ m}^2 \cdot \text{C}/\text{Vt}$), deraza ($R_0=0,22 \text{ m}^2 \cdot \text{C}/\text{Vt}$), eshik ($R_0=0,16 \text{ m}^2 \cdot \text{C}/\text{Vt}$), tom ($R_0=1,56 \text{ m}^2 \cdot \text{C}/\text{Vt}$) va yerto‘la yopmasi ($R_0=0,60 \text{ m}^2 \cdot \text{C}/\text{Vt}$) ning termik qarshiligi me‘yoriy ko‘rsatkichlardan (2,2; 0,53; 0,59; 3,0; 1,96 $\text{m}^2 \cdot \text{C}/\text{Vt}$) sezilarli past. Umumiy issiqlik yo‘qotishlari 164,791 Vt, solishtirma issiqlik sarfi 83,7 Vt/ m^2 ni tashkil etdi, bu me‘yoriy ko‘rsatkichdan (57 Vt/ m^2) 46,8% yuqori. Bino energiya samaradorligi “G” toifasiga mos bo‘lib, bu energiya samaradorlikni oshirishga qaratilgan kapital ta‘mirlash ishlari zaruriyatini ko‘rsatadi.


Tadqiqotda binolar texnik ko‘rikdan o‘tkazilish va energiya samaradorligini baholash ishlari birgalikda amalga oshirilishi binoning ma‘lumotlarini yig‘ishda, chizmalarini ishlab chiqishida, instrumental-texnik izlanishlar umumlashishini hisobiga mehnat va vaqt resurslari o‘rtacha 20 % ga qisqarishi asoslandi.

Ushbu bob KKUlarining energiya samaradorligini eksperimental tadqiq etish va ularni modernizatsiya qilish uchun amaliy tavsiyalar ishlab chiqishga asos yaratdi.

Dissertatsiyaning “**Ko‘p kvartirali uylarning energiya samaradorligini oshirish bo‘yicha tavsiyalar**” deb nomlangan to‘rtinchi bobida ko‘p kvartirali uylarning energiya samaradorligini hisoblashning hududning iqlimiy xususiyatlarini inobatga olgan holda baholash algoritmi ishlab chiqildi va shu algoritm asosida energiyasamaradorbino.uz hisoblash platformasi yaratildi. Platforma O‘zbekistonning turli iqlimiy hududlari uchun shaharsozlik normalari va qoidalariga moslashtirilgan, mavjud va modernizatsiya qilinayotgan binolarning energiya sarfini hisoblovchi va tejamkorlik potensialini aniqlovchi interaktiv veb-dasturiy ta‘minot hisoblanadi. Natijada muhandislar va loyihachilar uchun murakkab issiqlik texnikasi hisob-kitoblarini avtomatlashtirish orqali qaror qabul qilish jarayonini tezlashtirish va soddalashtirishga erishish ko‘zlangan.



8-rasm. Ko'p kvartirali uylarning energiya samaradorligini baholash platformasining ishlash algoritmi blok sxemasi.



9-rasm. Platforma bosh sahifasi

Platformaga asosiy bino parametrlarini kiritish orqali bino konstruksiyalarining issiqlik o'tkazishga bo'lgan qarshiligini, yo'qalayotgan issiqlik sarfini va bino energetik sinfini avtomatik hisoblash imkoniyatini beradi.

2-jadval

Tadqiqot obyekti konstruksiyalari R_0 qiymatlarining talab etilgan daraja bilan tafovuti.


№	Konstruksiyalar nomi	$R_0, m^2 \times ^\circ C / Vt$	$R_0^{tal.et}, m^2 \times ^\circ C / Vt$	Me'yoriy qiymatdan chetlashishi, $m^2 \times ^\circ C / Vt$
1	Tashqi devor	0,89	2,20	-1,31
2	Deraza	0,22	0,53	-0,31
3	Eshik	0,16	0,59	-0,43
4	Tom yopmasi	1,56	3,00	-1,44
5	Pol	0,60	1,96	-1,36

Kelib chiqayotgan salbiy farqni qoplash uchun binoga izolyatsiya ishlarini amalga oshirish talab etiladi.


Konstruksiyalar issiqlik samaradorligini oshirish uchun 4 ta fasad izolatsiya tizimi tahlili amalga oshirildi. 1-nam fasad tizimi, 2- ventilyatsiyali fasad tizimi va taklif etilayotgan 3 -temopanel hamda 4-ventilyatsiyali termopanel tizimlar bo'lib, quyida 3 va 4-tizimlarning sxemasi batafsil ifodalangan.

Bino tom va pol qismlari uchun issiqlik izolyatsiyalash tizimlari sxemasi taklif etildi. Bunga ko'ra asosiy issiqlik izolyatsiyalovchi material sifatida ekstruziyalangan penopolistrol (XPS panel) materiali tanlab olindi. Bu material yengil va issiqlik o'tkazuvchanligi past, samarali issiqlik himoya materiali hisoblanadi. Pol qismi izolatsiyasida bino yerto'la qismidan 1-qavat yopmasi ostki qismidan izolyatsiyalash taklif etildi, sababi bunda xonadonlarda pol qoplamalarini almashtirish va xona balandligi o'zgarishidan saqlab qolishga erishish nazarda tutilgan.


Tashqi derazalarni energiya samarador ichki issiqlikni saqlovchi selektiv qoplamali 2 kamerali deraza romlariga, tashqi eshiklar ichki qismida bazalt asosidagi mineral paxta qatlami bo'lgan energiya samarador eshiklarga almashtirilishi taklif etildi.



10-rasm. Tashqi devor issiqlik himoya tizimlari. a) termopanel; 1-devor; 2-plitani mahkamlash dubeli (1 m² ga 8 ta); 3-gruntovka; 4-polimersementli yelim (10mm); 5- mineral paxta plitasi (100mm); 6- yelimgan bazalt to'ri (8x8mm); 7-kvars qumi va polimer yelim asosidagi tashqi dekorativ qoplama (5 mm); b) ventilyatsiyali termopanel; 1-yuk ko'taruvchi devor; 2- bazalt asosidagi mineral paxta plitasi (100mm); 3-metall list qoplama; 4-havo oqimi uchun bo'shliq; 5- mineral momiq asosidagi oraliq qatlam; 6-panellar chokini yopish va havo oqimini tashkil etish uchun teshiklari mavjud bo'lgan metall listli qoplama; 7- panelni mahkamlash uchun komplekt mahkamlash dubeli (1m² ga 4 ta).



11-rasm. Tom va pol izolyatsiyalash sxemalari. a) tom izolyatsiyalash qatlamlari. 1-ikki qavat gidroizolatsion qoplama (Техноэласт ЭПП+Техноэласт К ТКП); 2-sement-qum asosidagi qorishma (30 mm); 3-namdan himoyalovchi polietilen qoplama; 4- XPS panel (60 mm); 5-montaj pena yelimi yordamida yelimlash; 6- mavjud gidroizolatsiya; 7- mavjud beton qatlami, 8-mavjud keramzit. b) pol izolyatsiyasi o'rnatish sxemasi. 1-mavjud lenolium; 2-sement-qum asosidagi qorishma (30 mm); 3-keramzit; 4-mavjud orayopma plitasi; 5-montaj pena yelimi yordamida yelimlash; 6-XPS panel 60-80 mm (Пеноплекс); 7- montaj pena yelimi yordamida yelimlash; 8- namlikdan himoyalovchi plyonka; 9- mahkamlash dubeli (1m² ga 8 ta).




12-rasm. Ikki kamerali energiya samarador deraza romlari yozda va qishda ishlashi



13-rasm. Zamonaviy kirish yo'lagi eshigining bazaltli ichki qatlami.

Yuqoridagi tavsiya etilayotgan usullarda bino tashqi konstruksiyalarida R_0 qarshiliklar issiqlik himoyasining 2-darajasiga erishish imkonini beradi.




14-rasm. Konstruksiyalar R_0 qiymatining kapital ta'mirdan so'ng o'zgarish diagrammasi.

Kapital ta'mirlash xarajatlaridan kelib chiqib bino kapital ta'mirlashning yuqorida ko'rsatilgan barcha konstruksiyalar issiqlik izolatsiyasi choralarini qamrab olgan "Optimal" va tashqi derazalar almashtirilishi nazarda tutilmagan "Iqtisodiy" usullari taklif etildi.

3-jadval

Jami issiqlik yo'qotilishi va ajralishlari yig'indisi

